

Bolalarni muloqot qilishga rag'batlantiruvchi ta'limiy faoliyatlar

Usmonova Umida Baxtiyorovna

Annotatsiya

Davlat qaramog'idagi hamda xususiy tarmoqdagi maktabgacha ta'lim muassasalarda ingliz tilini o'rgatish bo'yicha keng ko'lamli loyihalar amalga oshirilmoqda. Ushbu maqolada chet tillarini xususan, ingliz tilini bolalikni ilk yoshida o'qitishda ta'limiy o'yinlardan foydalanishning muhimligi va aynan turli o'yinlar orqali til ko'nikmalari oson o'zlashtirilishi yuzasidan fikrlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Ta'limiy o'yin, faoliyat, nozik vosita mahorati, ko'z-qo'l muvofiqlashuvi, faol ta'lim turlari, ingliz tilida blok o'ynash, rol o'yinlar, qo'l mehnati

Yosh bolalar o'zlarining his-tuyg'ulari va harakatlari orqali o'rganishadi, shuning uchun ingliz tilini o'rganish ham ana shu xis tuyg'ular va xatti harakatlar orqali amalga oshirilishi kerak. Yosh bolalarni ingliz tilini o'rganishida qiziqarli va muloqot qilishga rag'batlantiruvchi vaziyatlar va faoliyatlarga jalb qilish til ko'nikmalarini o'zlashtirish uchun juda muhim omil xisoblanadi.

Faoliyat maqsadi ingliz tilini o'rgatish bo'lsa-da, u o'yin kabi bolalarni o'ziga jalb qila olishi hamda ushbu mashg'ulotlarga bolalar beixtiyor kirishib ketishi va bolalar xorijiy tilni o'z ona tili kabi tabiiy tarzda o'zlashtirib borishligini ta'minlash ham alohida e'tiborga molik.

Yosh bolalarni ingliz tilini o'rganish uchun qiziqarli va rag'batlantiruvchi turli vaziyatlar xosil qilish va bolalarni unda faol ishtrok etishlarini ta'minlash barcha mavjud imkoniyatlardan foydalanish ayniqsa muhim ahamiyatga ega.

Vaziyat/ Ta'limiy faoliytlar

Har qanday vaziyat va faoliyatlar zamirida ingliz tilini o'rgatish yotganligi tufayli, ushbu faoliyatlar ravon va tushunarli tarzda ingliz tilida olib borilishi maqsadga muvofiq. Ona tilidagi muloqotni qisqartirish va asosiy urg'uni ingliz tiliga berish kerak. Albatta murabbiyning harakati, imo ishorasi va ingliz tilida ravon nutqi va gaprish ohangi bilan bolani o'ziga jalb qila olishi til o'rgatishdagi eng birinchi va asosiy muvaffaqiyatlardan hisoblanadi. Xususan, til o'rgatuvchi murabbiylarning

“Playing with blocks or legos” (blokklar yoki lego vositalari bilan o'ynash), “Dressing” (turli ertak qahramonlari kiyimlarini kiyish), “Animals and their sounds” (hayvonot olami va ularning tovushlari bilan tanishish), “Crafts” (qo'l mehnati yordamida turli narsalar yasash), Sing a song (qo'shiq kuylash) kabi ta'limiy faoliyat turlaridan foydalanishi yosh bolalarda til o'rganish ko'nikmalarini shakllantirishdagi maqbul usullardan hisoblanadi. Biz ushbu faoliyatlardan foydalangan holda bolalarning so'z boyligini, tasavvurini va ijodiy fikrlashni kengaytirish va rivojlantirib borish imkoniga ega bo'lamiz.

“Playing with blocks or legos” Bolalarga ingliz tilida shakllar, ranglar va raqamlar haqida tushuncha berish maqsad qilinganda aynan blokklar, kubiklar hamda lego o'yini orqali amalga oshirilganda o'zlashtirish natijasi yaxshiroq bo'lishi amaliyotda o'z isbotini topgan. Blokklar, kubiklar va lego o'yinchoqlarini o'ynash bolani fikrlashga undaydi va biror ish qilishda uning ijodiy qobiliyatini yuzaga chiqaradi, shu bilan birga bu o'yinlar vositasida bolaning ingliz tilida lug'at boyligini oshirish imkoniyati ham paydo bo'ladi. O'yinlarda so'z boyligini ingliz tilida savol berish hamda asosiy tushunchalarni ko'rsatma orqali yetkazish bilan amalga oshiriladi. Bola bu o'yin orqali sanashni va tartiblashni o'rganadi: **How many blocks are there? (u yerda nechta kubik bor?) Shall we put the blue ones here? (bu yerga ko'k kubikni qo'yamizmi?)** Narsalar joylashuvini predloglar orqali o'rganadilar: **in(ichida), on(ustida), under(ostida), below(pastda), behind(orqasida), next to(yonida).** O'lchov birliklari haqida tushuncha ega bo'ladilar: **big(katta), small(kichik), long(uzun), short(qisqa).** Quyidagi so'zlar yordamida bola yasayotgan narsalarga ko'rsatma beriladi: **Find the the red block, please!(qizil kubikni toping!), Pull the blue one, please!(ko'k kubikni torting!), push them!(ularni suring!), Build the house, please!(uy quring!) make the car, pleaser! (mashina yasang!).** Bola yasayotgan narsa va shakllarga ta'rif beriladi: **square(kvadrat), rectangle(to'g'ri to'rtburchak), tower(minora), house(uy), castle(saroy), garden(bog')**

“Dressing” ta'limiy faoliyat turi orqali bolalarga dunyo xalqlarning ertak qahramonlarini tanishtirish mumkin. Ertak qahramonlarining obrazlarini bolalarga

tanishtirilayotganda ularning kiyimlarini kiydirish va rol ijro etish ingliz tilida olib boriladi va bu faoliyat yordamida bolaning ingliz tili soʻz boyligi ortadi va bola tasavvuri, dunyoqarashi kengayadi. Ushbu taʼlimiy faoliyat orqali bolalar, inson tana aʼzolariga hamda kiyim kechakka oid boʻlgan soʻzlarni oʻrganadilar va amaliyotda qoʻllash imkoniga ega boʻladilar. Inson tana aʼzolari: **head(bosh), arms(qoʻllar), hands(qoʻllar), foot (feet)(oyoqlar), legs(oyoqlar), eyes(koʻzlar)...** Kiyimlar: **dress(qizlar koʻylagi), shirt(ogʻil bolalar koʻylagi), t-shirt(futbolka), shoes(poyafzal), slippers(shippaklar), cap(kepka), belt(kamar), gloves(qoʻlqoplar) ...** Buyruq ham tana aʼzolariga urgʻu bergan xolda beriladi: **put your arms through here (qoʻlingizni shu yerga kiriting), tie this around your waist/wrist (belingizga taqing), put these on your feet (bularni oyogʻingizga kiying) — first your right foot (avval oʻng oyogʻingizdan boshlang), then your left foot (soʻng chap oyogʻingizga), put this over your head (boshingizga kiying).**

Shuningdek, bolalar ertak qahramonlarini oʻz tassavurida jonlantiradilar, obrazga kirishadilar hamda asosiy soʻz va soʻz iboralarni qoʻllashni oʻrganadilar. Bu albatta ingliz tilida soʻzlarni tinglab tushunish va yod olingan soʻzlardan jumlar tuzish orqali gapirish mahoratini ham rivojlanishiga xizmat qiladi. Mavjud qahramon kiyimlari **tasvirlanadi (fairy (pari), princess (malika), pirate (qaroqchi), king (qirol), clown (masharaboz))** hamda kiyim kiyishga doir soʻz iboralarini qoʻllaniladi: **put on (kiyining!), zip up (zamokni qadang!), do the buttons up (tugmalarni qadang!), unbutton (tugmalarni yeching), unzip (zamokni tushiring).**

“Animals and their sounds” taʼlimiy faoliyat turi vositasida ingliz tilida hayvonot va hasharot olami tanishtiriladi. Bolalar hayvonlar ishtirok etgan turli qissa va hikoyalarni ham jon qulogʻi bilan tinglaydilar. Hayvonlarning rangli surati tasvirlangan rasmlar orqali ingliz tilida hayvonlar va ularning harakatlari, tovushlari haqida oʻrganish ham bolalar uchun zavqli bir masgʻulot hisoblanadi. Uy hayvonlari **domestic animals : dog, cat, duck, cock, hen, chicken, cow ...** Yovvoyi hayvonlar **wild animals : lion, tiger, wolf, rabbit, fox, snake, deer ...** Bolalarning ingliz tilida

hayvon va hasharot nomlarini o'rganish va murabbiy bilan birga ularning haratlariga taqlid qilish bolaga olam-olam zavq bag'ishlaydi.

<i>Hayvonot</i>	<i>Qanday tovush beradi</i>	<i>Tarjima</i>
<i>Dogs</i>	<i>bark</i>	<i>It</i>
<i>Cats</i>	<i>mew, purr, meow, hiss, yowl</i>	<i>Mushuk</i>
<i>Caws</i>	<i>moo, low</i>	<i>Sigir</i>
<i>Ducks</i>	<i>quack</i>	<i>O'rdak</i>
<i>Frogs</i>	<i>croak</i>	<i>Baqa</i>
<i>Bees</i>	<i>hum and buzz</i>	<i>Asalari</i>
<i>Lions</i>	<i>roar, growl</i>	<i>She'r</i>
<i>Chicks</i>	<i>cheep</i>	<i>Jo'ja</i>
<i>Flies</i>	<i>buzz, hum</i>	<i>Pashsha</i>
<i>Birds</i>	<i>chirrup, chirp, twitter, tweet, sing, whistle</i>	<i>Chumchuq</i>
<i>Wolves</i>	<i>howl, cry, yell</i>	<i>Bo'rilar</i>

“**Crafts**” Q’ol mehnati: narsalar yasash va bezak berish ta’limiy faoliyat turi. Bola tabiatan qiziquvchan ekanligi hammaga ma’lum ammo bolaning rivojlanish jarayoni bir paytda bir xil tarzda kechmasligini ham yodda tutish kerak. Ayrim bolalar ijtimoiy kelib chiqishi, tabiati va qiziqishidan kelib chiqqan xolda rivojlanish bosqichi qolganlarnikidan farq qilishi mumkin. Ba’zi bolalar sokin bo’ladilar ko’pchilikka tez qo’shib keta olmaydilar ammo ular kuzatuvchan bo’lganligi tufayli ijodkorlik qobiliyati yaxshigina rivojlangan bo’ladi. Ana shunday bolalar qo’l mehnati vositasida narsalar yasash faoliyatiga jalb qilinsa ulardan shubhasiz haqiqiy san’at asar ixtirochilari yetishib chiqadi.

Qo’l mehnati orqali bolalarga rang barang narsalar yasash o’rgatilganda, bolaning ijodkorlik qobiliyatlari rivojlanadi va bu faoliyat ingliz tilida olib borilganda ingliz tili lug’at boyligi oshadi va tinglab tushunish hamda gapirish mahorati ham rivojlanadi. Demak, bu ta’limiy faoliyat turi qo’g’oz parchalaridan shakllar yasash, bo’yoqlar yordamida shakllarga rang berish yoki plastilindan turli narsalar yasash

bo'lishi mumkin. Har qanday jarayon ingliz tilidagi so'z va so'z iboralaridan xoli bo'lmasligi kerak.

Har bir vosita va ashyo nomi bolalarga ingliz tilida yetkazilishi kerak: **paint(bo'yoq), paintbrush(bo'yoq chyotkasi), crayon(qalam), marker(marker) card (karta), paper(qog'oz), crepe paper(krep qog'oz), shiny paper (yaltiroq qog'oz), tissue paper(to'qima qog'oz), newspaper (gazeta), glue(yelim), scissors (qaychi), cotton wool (paxta yungi), fabric (mato), feathers (patlar).**

Ko'rsatmalar ingliz tilida olib borilishi kerak:

paint (boyamoq), draw(chizmoq), colour (rang bermoq), smudge(chaplamoq) blow(puflamoq), copy(ko'chirmoq), pour(quymoq), make(yasamoq), cut(kesmoq, qirmoq), stick (yopishtirmoq), decorate (bezamoq), hang (it) up (ilib qo'ymoq).

Sing a song (birgalikda qo'shiq kuylash).

Bolajonlarning eng yoqimli mashg'ulotlaridan biri. Bolalar yoshlikdan qo'shiq kuylashga moyil bo'ladilar va qo'shiq kuylash vositasida bolalar nafaqat so'z boyligini orttiradilar shu bilan birga ular so'zlarni ohangga solib aytishni o'rganadilar. Kichik yoshdagi bolalar orasida kuylanadigan inglizcha qo'shiqlarining eng ommabop turlaridan biri " Rain, Rain go away" qo'shig'idir.

Rain, rain, go away

Come again another day

Daddy wants to play

Rain, rain go away...

Ta'limiy o'yin soyabonlar, yasama bulut hamda sun'iy yong'ir vositasida amalga oshirilsa bolalajonlar faolligi oshadi natija samaradorligi ortadi

Bolalarning o'yindagi ishtirokini taxlil qilib borish

Ta'limiy faoliyatda bolalarni faol qatnashishini ta'minlash, har bir bolaga aloxida e'tibor qaratish va bolani ushbu mashg'ulotda biror narsa o'rganish uchun rag'batlantirib borish lozim. Mashg'ulotga yutuqqa erishayotgan bolalarni ishi uchun maqtab qo'yish ham ulardagi rag'batni kuchaytiradi. Ammo psihologlarning fikricha maqtov shaxsga nisbatan emas balki qilingan ishiga nisbatan qaratilishi

kerak deyiladi. Chunki agar maqtov shaxsga nisbatan berilsa bu bolani keyinchalik hudbinlikka yetaklab borishi mumkin ekan. Ishiga qaratilgan maqtov keyinchalik ham har qanday ishni sifatli va tez bo'lishini ta'minlaydi.

Bolalarning maktabda qanday o'qishi, yuksak maqsadlar bilan kamol topishi ko'p jihatdan oila muxuti, mahalla e'tibori hamda maktabgacha ta'lim muassasasidagi tarbiyaga bog'liq. Maqolada berilgan ilmiy kuzatishlar va tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson umri davomida oladigan barcha axborotning 70 foizini 6 yoshgacha bo'lgan davrda olishi aynan bola shaxsining rivojlanishida maktabgacha ta'limning o'rnini nechoq'li muhimligidan dalolat beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan 2017 yil 16 avgust kuni o'tkazilgan yig'ilishda maktabgacha ta'lim muassasalariga 5–6 yoshli bolalarni 100 foiz qamrab olish choralarini belgilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Davlat talablarining maqsadi ham mamlakatda o'tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni, xorijiy mamlakatlar ilg'or tajribasi hamda ilm-fan yutuqlari va zamonaviy informatsion kommunikativ texnologiyalarni inobatga olgan holda maktabgacha ta'lim tizimida ma'nadan mukammal va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdir. Demak aynan bolalarning ilk yoshida organgan bilimi ajdodlarimiz aytganidek "toshga bititilishi" bejis emas ekan. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan xolda xorijiy tillarni ham bolalarga erta yoshida o'rgatish til ko'nikma va malakalarining oson o'zlashtirishiga sabab bo'lar ekan. Ayniqsa ushbu bilim, ko'nikma, malakalar turli o'yin va ta'limiy faoliyatlar orqali singdirib borilsa, bola xorijiy tillarni o'z ona tilisi kabi tabiiy tarzda rivojlantirib boradi. Ta'limiy o'yinlar bolada nafaqat bilim ko'nikma, malakalarni shakllantiradi balki shu bilan birga u bolani jismonan sog'lom rivojlanishini ta'minlaydi, ruhan tetiklashtiradi, o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi hamda atrofdagilar bilan ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishga katta ko'mak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentyabrdagi «Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillatirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3261-son qarori;
2. O‘z DSt 17368–2020 “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash haqida ”
3. SH.Mahkamboyeva “Use of modern innovative technologies in teaching English” article
4. <https://www.cde.ca.gov/sp/cd/re/caqdevelopment.asp>. Ages and Stages of Development
5. Care About Quality was published by the California Department of Education in 2000.
6. https://eacea.ec.europa.eu/national-policies/eurydice/content/teaching-and-learning-early-childhood-education-and-care-8_en. internet resurs.
7. Maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilari va boshlang‘ich maktab o‘quvchilariga chet tilini o‘rgatishda o‘yinlar. Baxramova M. D. Tuzuvchi: Baxramova M. D., — T.2016.
8. <https://raisingchildren.net.au/newborns/play-learning/play-ideas/why-play-is-important> internet resurs
9. <https://www.britishcouncil.org/voices-magazine/how-young-children-learn-english-through-play> internet resurs
10. <https://www.parents.com/baby/development/intellectual/how-to-teach-your-child-a-foreign-language/> internet resurs
11. Early childhood education in English for speakers of other languages by ViAdam, Bob and Morris Paul (1997) the English curriculum in the People’s Republic of China, comparative education Review, 41, 3–26
12. Alcon, E and Guzman, J-R (2000). Language learning Strategies and Second language Use in academic Context. Universtate Jaume 1.
13. Algeo, J (2010) 6th ed. Origin and Development of English Language. Wordsworth
14. Anderson, T. (1960:303). “. In Madrid, D (2001): “A conceptual Framework for the teaching of foreign languages in infant education”. University Granada. Pg 145–155.